O‘ZBEK DRAMALARIDA XALQ MAQOLLARINING LINGVISTIK, PRAGMATIK, SOTSIOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Mavlanova Hafiza Gulmurodova
Resessans ta’lim universiteti o‘qituvchisi
E-mail: hafizamavlonova9@gmail.com
ORCID: 0009-2998-9972

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek dramatik diskursida xalq maqollarining lingvopragmatik va sotsiopragmatik xususiyatlari, ularning personajlar xarakterini ochib berish, kommunikativ maqsadni ifodalash hamda kinoya, istehzo va satirik mazmunni yuzaga chiqarishdagi funksional imkoniyatlari tahlil qilingan. Xususan, “Kelinlar qo‘zg‘oloni” va “Advokatlik osonmi?” dramalari misolida maqollarning semantik, sintaktik va pragmatik xususiyatlari, presuppozitsiya va implikatsiyani shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, dramatik nutqda maqollarning ijtimoiy-madaniy qadriyatlar hamda oilaviy munosabatlarni ifodalashdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: drama, lingvistik, pragmatik, sotsiopragmatik, qahramon, istehzo, kesatiq, ironiya, satirik, semantik, sintaktik.

Аннотация. В статье анализируются лингвопрагматические и социопрагматические характеристики народных пословиц в узбекском драматическом дискурсе, а также их функциональный потенциал в раскрытии черт характера, передаче коммуникативного намерения и создании эффекта иронии, сарказма и сатиры. В частности, на примере пьес «Kelinlar qo‘zg‘oloni» («Бунт невесток») и «Advokatlik osonmi?» («Легко ли быть адвокатом?») исследуются семантические, синтаксические и прагматические особенности пословиц, а также их роль в формировании пресуппозиции и импликатуры. Кроме того, в статье подчеркивается значимость пословиц в драматической речи для выражения социокультурных ценностей и семейных отношений.

Ключевые слова: драма, лингвистический, прагматический, социопрагматический, персонаж, сарказм, насмешка, ирония, сатирический, семантический, синтаксический.

Abstract. This article analyzes the linguopragmatic and sociopragmatic characteristics of folk proverbs within Uzbek dramatic discourse, as well as their functional potential in revealing character traits, conveying communicative intent, and eliciting irony, sarcasm, and satirical content. Specifically, using the plays “Kelinlar qo‘zg‘oloni” (Revolt of the Daughters-in-Law) and “Advokatlik osonmi?” (Is Being a Lawyer Easy?) as examples, the study examines the semantic, syntactic, and pragmatic features of proverbs and their role in shaping presupposition and implicature. Furthermore, the article highlights the significance of proverbs in dramatic speech for expressing socio-cultural values and family relationships.

Keywords: drama, linguistic, pragmatic, sociopragmatic, character, sarcasm, taunt, irony, satirical, semantic, syntactic.

Kirish. O‘zbek dramalarida xalq maqollarining ishtirok etishi, nutqda qo‘llanilishi ham uning estetik yoki folklor xususiyatlarini tahlil qilishga emas, aksincha, lingvistik, pragmatik, sotsiopragmatik xususiyatlarini asoslashga qaratiladi. Biz tahlilga tortgan dramalarda ham maqollar salmoqli o‘rin tutadi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki maqollarning qo‘llanilishi quyidagi nutqiy talab bilan voqelangan:

1. Qahramonning xarakter-xususiyatlarini yoritish;

2. Ironiyani ifodalash;

3. Qahramonlar o‘rtasidagi kommunikativ aloqada kommunikativ maqsadni yoritish;

4. Qahramon nutqining pragmatik dasturini ifodalash.

Asosiy qism. Maqollarning tub zamirida ibrat, yaxshilikka undash mazmuni yotadi. Zotan, dramatik nutqda voqelangan maqollarni tahlil qilish jarayonida

maqollar orqali istehzo, kesatiq, ironiya, satirik mazmunni ifodalashda ham asosiy rol o‘ynaydigan vosita ekanligini ko‘rish mumkin. O‘zbek dramalarida maqollarning salmog‘i yuqori. “Kelinlar qo‘zg‘oloni” dramasida maqollarning umumiy soni 23 tani tashkil etib1, ularning asosiy qismi obrazlar xarakterini yoritish va satirik mazmunni ifodalashda qo‘llaniladi. Xususan, quyidagi dramalarda obrazlar nutqida qo‘llanilgan maqollarning pragmatik, sotsiopragmatik xususiyatlari, xarakter yaratishdagi roli va funksiyasiga diqqat qilamiz:

Muhayyo	*Oyim tipratikonni teskarisiga silab uxlatadiganlardan.*
Bashorat	*Zo‘rdan zo‘r chiqsa, zo‘r bo‘ynini qisar.* (S. Ahmad. Kelinlar qo‘zg‘oloni. 1976)

Masalan, “Kelinlar qo‘zg‘oloni” dramasida Bashoratning “Yuzga aytganning zahri yo‘q” hamda “Ishonmagin do‘stingga, somon tiqar po‘stingga” kabi maqollarni qo‘llashi personajning munosabat bildirish, ogohlantirish va muayyan xulosa chiqarishga undash strategiyasini ifodalaydi. “Ikki qo‘chqorning boshi bir qozonda qaynamas” maqoli esa shaxslararo munosabatlardagi ziddiyatni umumlashtirish va vaziyatni baholash imkonini beradi. Mazkur misollar maqollarning pragmatik vazifasi ularning lug‘aviy mazmuni bilangina emas, balki dialogdagi o‘rni va personajlarning kommunikativ maqsadi bilan ham belgilanishini ko‘rsatadi.

A.Avloniyning “Advokatlik osonmi?” asaridagi “Qoramug‘ donasi bo‘lg‘uncha, bug‘doyning somoni bo‘l, yamanning yaxshisi bo‘lg‘uncha, yaxshining yamani bo‘l” va “Nima uchun ko‘rpangizga qarab oyoq uzatmadingiz?” kabi birliklar ham kontekstual tahlilni talab qiladi. Birinchi misolda qiyoslash va qarama-qarshi qo‘yish orqali ijtimoiy-axloqiy baho ifodalansa, ikkinchi misolda

1 Хурсанов Н.И. Драматик дискурсда вербал ва новербал компонентлар муносабати (ўзбек ва инглиз тилларидаги асарлар мисолида). Филол.фан.фал.д-ри. Дисс. авто-реф. – Андижон. 2022. 56 б.

so‘zlovchining adresat xatti-harakatiga munosabati hamda vaziyatga mos ish tutish zarurati anglashiladi. Shu bois ularning maqol sifatidagi tasnifi va pragmatik vazifasi asarning tegishli konteksti asosida izohlanishi kerak.

Oltinchidan, lingvomadaniy tahlil metodi maqollarda mujassamlashgan milliy qadriyatlar, xalqona dunyoqarash, axloqiy me’yorlar va ijtimoiy tajribani aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu metod orqali maqollarning muayyan madaniy muhitda shakllangan ma’nolari, oilaviy munosabatlarni tartibga solishdagi o‘rni va jamiyatning kollektiv tajribasini ifodalash xususiyatlari yoritiladi. Oilaviy munosabatlar, kasb-hunar, unvon va lavozim bilan bog‘liq metaforalar ham shu nuqtayi nazardan tahlil qilinib, ularning personajlar xarakteri va ijtimoiy mavqeyini aks ettirishdagi imkoniyatlari o‘rganiladi.

O‘zbek dramatik diskursida maqollar nafaqat kontekstual ekspressivlikni oshirish vositasi sifatida, balki asosiy fikr va g‘oyalarni yetkazishning muhim mexanizmi sifatida ham xizmat qiladi. Xususan, “Kelinlar qo‘zg‘oloni” dramasida maqollar Bashorat personajining nutqida markaziy o‘rin tutib, uning xarakteridagi sotsial-psixologik va emotsional jihatlarni yorqin ifodalashga yordam beradi. Maqollarning Bashorat nutqidagi faol qo‘llanilishi personajning dunyoqarashi, mentaliteti va ijtimoiy kontekstga moslashuvini ta’kidlaydi, bu esa nutqning pragmatik ta’sirini kuchaytiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Bashoratning nutqida maqollarning semantik va stilistik salmog‘i uning xarakteridagi dominantlik va ijtimoiy pozitsiyasini aks ettirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayon N.Xursanov tomonidan kognitiv xarita shaklida tahlil qilingan bo‘lib, maqollarning personaj nutqidagi funksional o‘rni va ularning kontekstual moslashuvi aniq tasvirlanadi. Kognitiv xarita orqali maqollarning Bashoratning nutqiy strategiyasida qanday qilib ramziy va pragmatik ma’nolarni shakllantirishi, shuningdek, dramatik diskursning umumiy estetik va kommunikativ maqsadlariga qanday hissa qo‘shishi ko‘rsatib beriladi. Natijada, maqollar dramatik asarda nafaqat ekspressiv vosita sifatida, balki personajning

ichki dunyosini ochish, syujetning ijtimoiy va psixologik qatlamlarini boyitish hamda tomoshabinlarda chuqur ta’sir uyg‘otishning asosiy mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ko‘rinadiki, maqollarda diskursga yondosh hodisalar yaqqol namoyon bo‘ladi. Qahramon nutqining presuppozitsiya, implikatsiya, kommunikativ maqsadi maqollar orqali yuzaga chiqishi faol. Demak, dramatik diskursda maqollar–presuppozitsiya va implikatsiyani ifodalashning o‘ziga xos usuli. Bunda maqollarning asosiy funksiyalari qatoriga, fikrimizcha, pragmatik, sotsiopragmatik funksiyasini ham kiritish o‘rinli.

Maqollar voqelikni aks ettirish va tahlil qilishning alohida usulidir. Demak, maqollarga hissiy-baholovchi xarakterdagi nominativ birliklar sifatida kommunikativ talab murojaat qiluvchining murojaat qiluvchi vaziyatni belgilash, unga o‘z munosabatini bildirish va ushbu ma’lumotni adresatga jo‘natish va shu bilan unga ta’sir qilish istagi bilan belgilanadi.

O‘zbek dramatik asarlarida maqollar lingvostilistik va pragmatik vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etib, nutqning ekspressivligini oshirish bilan birga, kontekstual ma’no va ijtimoiy qadriyatlarning ramziy ifodasini ta’minlaydi. Abdulla Avloniyning “Advokatlik osonmi?” asarida keltirilgan *“Qoramug‘ donasi bo‘lg‘uncha, bug‘doyning somoni bo‘l, yamanning yaxshisi bo‘lg‘uncha, yaxshining yamani bo‘l”* va *“Nima uchun ko‘rpangizga qarab oyoq uzatmadingiz?”* kabi maqollar o‘zbek mentalitetidagi ijtimoiy normalar va axloqiy qarashlarni aks ettirish bilan birga, dramatik kontekstda personajlarning psixologik holati va xatti-harakatlarini ochib berishda muhim rol o‘ynaydi.

Maqollarning dramatik nutqdagi sintaktik tuzilishi, asosan, ikki asosiy shaklda namoyon bo‘ladi: *inkor + buyruq* yoki *tasdiq + buyruq* konstruktsiyalari. Taqiqlovchi konstruksiyalar *“inkor + buyruq”* formulasi doirasida shaxssiz yoki infinitiv shakllarda, shuningdek, *“-ma” / “-yo‘q”* fe’l shakllari yoki *“sin” / “gin”*

qo‘shimchalari orqali ifodalanadi2. Bu konstruktsiyalar hech qanday harakatni bajarmaslik rag‘batini aniq ifodalovchi sintaktik modellar sifatida talqin etiladi va dramatik nutqda maslahat, ogohlantirish yoki ijtimoiy tanqidni yetkazishga xizmat qiladi. Masalan, Bashoratning nutqida keltirilgan “Yuzga aytganning zahri yo‘q” yoki “Olarda kirar jonim, berarda chiqar jonim” kabi maqollar ushbu sintaktik modelga misol bo‘lib, personajning ijtimoiy munosabatlar va axloqiy normalarga nisbatan pozitsiyasini ta’kidlaydi.

Xulosa. O‘zbek dramatik diskursida maqollar sintaktik tuzilishi va pragmatik funksiyalari orqali nafaqat nutqning estetik va emotsional ta’sirini oshiradi, balki personajlarning ijtimoiy-psixologik portretini shakllantirish, syujetning ramziy ma’nolarini boyitish va tomoshabinlar bilan kommunikativ aloqa o‘rnatishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Bu esa maqollarning dramatik nutqda o‘ziga xos stilistik va pragmatik ahamiyatini yanada yaqqol ko‘rsatadi.

O‘zbek mentalitetida metaforalar sotsiokultural kontekstga chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning lingvostilistik va pragmatik funksiyalari jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, an’anaviy qadriyatlar va turmush tarzi bilan uzviy ravishda bog‘langan holda shakllanadi. Ushbu metaforalar o‘zbek nutq madaniyatida faol qo‘llanilishi bilan ajralib turadi va quyidagi asosiy sotsial tasniflarga bo‘linadi: oilaviy muhitga taalluqli metaforalar, kasbga doir metaforalar, shuningdek, unvon va lavozimga oid metaforalar. Ushbu tasniflar orasida, ayniqsa, oilaviy muhitga nisbat berilgan metaforalar o‘zbek mentalitetining markaziy qadriyatlarini aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchi tasnifga kiruvchi metaforalar oilaviy munosabatlarning murakkab tuzilishiga asoslanadi va oilaning turmush tarzi, a’zolar o‘rtasidagi ijtimoiy rollar, xususan, er-xotin, qaynona-kelin, opa-singil, aka-uka kabi munosabatlarni ramziy

2 Xursanov N.I. Dramatik diskurs: kognitiv, pragmatik, lingvokulturologik tavsif (ingliz va o`zbek tillari chog`ishtiruvida). Filol.fan.d-ri. Diss. Avto-ref. - Farg‘ona. 2024. 76 b.

shaklda ifodalaydi. Bu metaforalar o‘zbek jamiyatidagi oilaviy qadriyatlarning markaziy o‘rni, ijtimoiy ierarxiya va hissiy aloqalarni ta’kidlaydi, shu bilan birga nutqning emotsional va pragmatik ta’sirini kuchaytirishga xizmat qiladi. Masalan, ushbu metaforalar orqali oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari nafaqat kundalik hayotda, balki dramatik diskursda ham chuqur psixologik va sotsial ma’nolarni aks ettirish vositasi sifatida qo‘llaniladi. Bunday metaforalar o‘zbek mentalitetining kollektivistik xarakterini va oilaviy birlikning muhimligini ta’kidlab, nutqning sotsiopragmatik funksiyasini yanada boyitadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O‘zbekiston, 2002. – B. 175.

3.Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. Samarqand, 1994. 57-b.

2.Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.

3.Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: O‘zbekiston, 1992. - 400 b.

5.Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 71.

6.Qilichev E. O‘zbek tilining amaliy stilistikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 160 b.

7.S.Ahmad. “Kelinlar qo‘zg‘aloni” dramasi. Komediya.www.ziyonet.com

8.S.Ahmad. “Kuyov” dramasi. Komediya.www.ziyonet.com

9.Sh.Boshbekov. “Eshik qoqgan kim bo‘ldi?” dramasi. Komediya.www.ziyonet.com

10.Sh.Boshbekov. “Temir xotin” dramasi. Komediya. www.ziyonet.com